REZYUME. Qo‘shiqlar qoraqalpoq xalqida juda boy va keng rivojlangan janrlardan biri hisoblanadi. she’r har qanday qiyin vaziyatlarda ham xalqning ma’naviy boyligi bo‘lib xizmat qilib keldi. Shuning uchun xalq o‘z san’atidan faqat ko‘ngil ko‘tarish uchungina emas, balki shu bilan birga ozodlik, mustaqillik, halol mehnat va yaxshi turmush uchun kurashda o‘tkir qurol sifatida foydalanib keldi.

РЕЗЮМЕ. Песни - один из самых богатых и широко развитых жанров каракалпакского народа. Народ может всесторонне передать свои внутренние чувства не только через мелодию, но и через песню, которая является сочетанием мелодии и текста. Песня служила духовным достоянием народа даже в трудные времена. Поэтому народ использовал свое искусство не только для развлечения, но и как острое оружие в борьбе за свободу, независимость, честный труд и лучшую жизнь.

SUMMARY. Poems are considered one of the richest and most developed genres among the Karakalpak people. Poetry has served as a spiritual treasure of the people even in difficult times. Therefore, the people have used their art not only for entertainment but also as a sharp weapon in the struggle for freedom, independence, honest work, and a good life.

MUSIQA ADABIYOTI FANINI O‘QITISHDA AN’ANAVIY VA INNOVATSION METODLAR INTEGRATSIYASI

Elmuratova Gulnara – *o‘qituvchi*
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukus filiali

Tayanch so‘zlar: musiqa adabiyoti, pedagogik metod, musiqiy tahlil, interaktiv ta’lim, estetik tarbiya, integrativ yondashuv, bastakor ijodi.

Ключевые слова: музыкальная литература, педагогический метод, музыкальный анализ, интерактивное обучение, эстетическое воспитание, интегративный подход.

Key words: music literature, pedagogical methods, music analysis, interactive learning, aesthetic education, integrative approach.

Bugungi kunda ta’lim tizimining barcha bosqichlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Musiqa ta’limi sohasi ham bu jarayondan mustasno emas. Musiqa o‘qitish texnologiyalari va loyihalash zamonaviy ta’lim metodlarini musiqiy-pedagogik jarayonga tatbiq etish, o‘quvchilarning estetik didini shakllantirish hamda ularning ijodiy va ijrochilik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Musiqa adabiyoti fani musiqa san’atining tarixiy rivojlanish bosqichlari, janr va uslublari, mashhur bastakorlar ijodi hamda musiqiy tafakkur evolyutsiyasini o‘rganuvchi muhim nazariy fan hisoblanadi. Ushbu fan o‘quvchilarda estetik did, musiqiy tafakkur va tahliliy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Pedagogika nazariyasida ta’lim samaradorligi metod tanlash bilan chambarchas bog‘liq ekanligi ta’kidlanadi [1]. Shuning uchun musiqa adabiyoti fanini o‘qitishda ilmiy asoslangan, tizimli va innovatsion metodlardan foydalanish dolzarb masala hisoblanadi. Musiqa ta’limida samarali dars jarayonini tashkil etish uchun rejalashtirish va modul tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Rejalashtirish - bu darslarning umumiy maqsad va natijalar asosida bosqichma-bosqich tuzilishini belgilash bo‘lib, pedagogning o‘quvchilarga bilim berishdagi aniq yo‘nalishini belgilaydi. Modul tizimi esa ta’lim jarayonini strukturalash, moslashuvchanlikni ta’minlash va individual yondashuvni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv musiqa darslarini an’anaviy yondashuvdan farqli ravishda yanada dinamik, interfaol va talabalarning o‘zlashtirish darajasiga moslashtirilgan tarzda tashkil etishga imkon beradi. Musiqa darslarini rejalashtirish tamoyillari. Samarali dars rejalashtirish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

> Maqsadga yo‘naltirilganlik - darsning har bir bosqichi oldindan aniq maqsad va natijalar bilan belgilanishi kerak.

> Bosqichma-bosqichlik - dars jarayoni murakkabdan soddaga yoki aksincha,

o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasiga qarab strukturaviy tarzda tashkil etilishi lozim.

> Interfaollik va ijodiy yondashuv - musiqa darslari nafaqat nazariy bilim berishga, balki ijodiy tafakkur va ijro ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

> Raqamli texnologiyalardan foydalanish - zamonaviy musiqa darslarida kompyuter dasturlari va onlayn platformalardan samarali foydalanish muhim.

Rejalashtirishda musiqa o‘qituvchisi o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, bilim darajasi va zamonaviy ta’lim texnologiyalarini hisobga olishi lozim. Shu sababli, darslar ma’ruza, amaliy mashg‘ulot va laboratoriya ishlarini o‘z ichiga olgan holda tashkil etilishi tavsiya etiladi.

I. Musiqa adabiyoti fanining nazariy asoslari. Musiqa adabiyoti fanining metodologik asoslari musiqashunoslik, estetika va pedagogika fanlariga tayanadi. Xususan, Boris Asafyev tomonidan ilgari surilgan “intonatsiya nazariyasi” musiqiy asarni tarixiy va ijtimoiy kontekstda tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi [2]. Shuningdek, Dmitry Kabalevsky musiqa ta’limida tinglash va idrok etish jarayonining tarbiyaviy ahamiyatini alohida ta’kidlagan [3]. Bu qarashlar musiqa adabiyoti fanini o‘qitishda asarni faqat nazariy emas, balki emotsional-estetik jihatdan ham tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi. Nazariy asoslarning muhim jihati — tarixiylik tamoyili. Musiqa asari o‘z davri madaniy muhiti bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganilishi lozim.

II. An’anaviy o‘qitish usullari


1. Ma’ruza metodi. Ma’ruza — musiqa adabiyoti fanida asosiy axborot berish shakli hisoblanadi. Bunda bastakor hayoti, ijodiy merosi va davr xususiyatlari yoritiladi.

2. Musiqiy tahlil metodi. Musiqiy asarni shakl, janr, garmoniya va ifoda vositalari asosida tahlil qilish talabalar tafakkurini rivojlantiradi.

3. Tinglash va muhokama. Asarni faol tinglash va guruhli muhokama qilish usuli estetik idrokni chuqurlashtiradi [4].

Misol sifatida klassik bastakorlar ijodi

Ludwig van Beethoven





Beethoven ijodini o‘rganishda dramatizm, simfonik tafakkur va shakl rivoji tahlil qilinadi.

Wolfgang Amadeus Mozart







Mozart ijodi misolida klassitsizm davri uslubi, operaviy dramaturgiya va melodik ravonlik tahlil qilinadi.

III. Zamonaviy innovatsion metodlar

Zamonaviy ta’lim texnologiyalari musiqa adabiyoti fanini o‘qitishda interaktivlikni kuchaytiradi.

- Multimedia taqdimotlar
- Audio-vizual tahlil
- Onlayn platformalar
- “Case-study” usuli
- Klaster va konseptual xaritalar

Interaktiv metodlar talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. Ayniqsa, bastakorlar ijodini davr kontekstida qiyosiy tahlil qilish samarali hisoblanadi.

IV. Integrativ va kompetensiyaviy yondashuv

Musiqa adabiyoti fanini tarix, adabiyot, san’atshunoslik bilan integratsiyalash talabalarning kompleks tafakkurini shakllantiradi. Kompetensiyaviy yondashuv esa bilimni amaliy qo‘llash ko‘nikmasini rivojlantiradi. Masalan, romantizm davrini o‘rganishda tarixiy jarayonlar, adabiy oqimlar va musiqiy uslub uyg‘unlikda tahlil qilinadi.

Xulosa qilib aytganda musiqa adabiyoti fanini o‘qitishda an’anaviy va innovatsion metodlarni uyg‘unlashtirish zarur. Ilmiy asoslangan yondashuv, tarixiylik tamoyili, musiqiy tahlil, tinglash madaniyati va interaktiv metodlar ta’lim samaradorligini oshiradi. Natijada talabalarda musiqiy tafakkur, estetik did va tahliliy kompetensiyalar shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Farberman B. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – T.: O‘qituvchi, 2019.
2. Asafyev B. Музыкальная форма как процесс. – Leningrad, 1971.
3. Kabalevsky D. Воспитание ума и сердца. – Москва, 1984.
4. Nazirov R. Musiqa pedagogikasi asoslari. – T.: Fan, 2018.
5. Sayidahmedov N. Pedagogik texnologiyalar. – T.: 2020.
6. Abdullayev A. Musiqa tarixi. – T.: 2017.

REZYUME. Mazkur maqolada musiqa adabiyoti fanini o‘qitishning nazariy va metodik asoslari, an’anaviy hamda innovatsion pedagogik metodlarning o‘zaro uyg‘unligi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Musiqiy tahlil, tinglash madaniyati, interaktiv ta’lim texnologiyalari va integrativ yondashuvning ta’lim samaradorligiga ta’siri ochib beriladi. Shuningdek, milliy va jahon musiqa merosi asosida kompetensiyaviy yondashuvning ahamiyati asoslanadi.

РЕЗЮМЕ. В данной статье с научной точки зрения анализируются теоретические и методические основы преподавания музыкальной литературы, взаимосвязь традиционных и инновационных педагогических методов. Раскрывается влияние музыкального анализа, культуры слушания, интерактивных образовательных технологий и интегративного подхода на эффективность обучения. Также обосновывается важность компетентностного подхода на основе национального и мирового музыкального наследия.

SUMMARY. This article scientifically analyzes the theoretical and methodological foundations of teaching music literature, the harmony of traditional and innovative pedagogical methods. The influence of musical analysis, listening culture, interactive educational technologies, and an integrative approach on the effectiveness of education is revealed. The importance of a competency-based approach based on national and world musical heritage is also substantiated.

O‘ZBEK XALQ RAQSI IJROCHILARINING IJODIY VA PEDAGOGIK FAOLIYATI

Fazliyeva Zebo Kamarbekovna – *dotsent*
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

Tayanch so‘zlar: xalq raqsi, tarixiy davr, marosim raqs, mahorat, xususiyat, san’at, ansambl.
Ключевые слова: народный танец, исторический период, обрядовой танец, мастерство, особенность, искусство, ансамбль.
Key words: folk dance, historical period, ritual dance, skill, characteristic, art, ensemble.

Kirish. O‘zbek xalq raqsi ustalari har biri o‘ziga xos sahna uslubi va ijro mahorati bilan ajralib turadi. Tamaraxonim (Tamara xonim) o‘zbek professional raqsining asoschilaridan biri bo‘lib, u nafaqat raqqosa, balki xonanda va baletmeyster sifatida ham tanilgan. Uning ijro uslubi milliy va xalqaro unsurlar uyg‘unligida namoyon bo‘lgan; u sahnada o‘zbek raqsini dramatik teatr ifodasi bilan boyitgan. Masalan, Tamaraxonim bir konsertda oldin qayg‘uli ohangdagi “Dilxiroj” raqsini ijro etib, undan so‘ng sho‘x “Usmoniya” raqsiga tushgan – bunday keskin kayfiyat almashinuvlari uning sahna mahorati naqadar keng qamrovli ekanini ko‘rsatgan. Tamaraxonim o‘z repertuarini nafaqat o‘zbek raqslari, balki dunyoning 86 xil milliy qo‘shiqlari va raqslari bilan boyitgan edi. Jumladan, u Farg‘ona, Buxoro, Xorazm an’anaviy raqs uslublarini sahnaga olib chiqdi va hind, afg‘on, indonez kabi Sharq xalqlari raqslarini ham mohirona ijro etdi. Uning turli millatlar raqslaridan yaratgan raqs-miniatyuralari butunlay yangi janr sifatida e’tirof etilgan bo‘lib, “Lazgi” singari mahalliy raqslarni ham sahnaviy chiqishga aylantirishga xizmat qilgan, natijada o‘zbek raqsi jahon sahnasida yorqin namoyon bo‘ldi. Tamaraxonimning ijodi tufayli uni zamondoshlari “Sharq qaldirg‘ochi” deya ulug‘lashgan (1924-yilda Moskva sahnasida ilk chiqishidayoq shu nomga sazovor bo‘lgan).

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Mukarrama Turg‘unboyeva esa o‘zbek sahna raqsining yana bir ulkan darg‘asi bo‘lib, u raqqosa va baletmeyster sifatida milliy raqslarga yangi nafas bag‘ishladi. Uning har bir chiqishi tom ma’noda bir doston edi – sahnada raqs orqali muayyan voqea yoki tuyg‘uni hikoya qila olishi bilan ajralib turardi. Mukarrama opa o‘z ijodida Farg‘ona vodiysi raqslarining nafis va mayin harakatlarini o‘rgandi, Xorazm va Buxoro raqslarining o‘ziga xos usullarini sahnaga moslashtirdi. U o‘zbek raqsining oltin fondidan joy olgan bir qator noyob raqslarni sahnalashtirdi: “Tanovar”, “Katta o‘yin”, “Jonon”, “Pilla”, “Paxta” kabi raqslar aynan Mukarrama Turg‘unboyeva ijodining mahsuli bo‘lib, milliy raqs san’atida yangi sahnaviy talqinini topdi. Xususan, 1943 yilda sahnalashtirgan “Tanovar” raqsi uning baletmeysterlik ijodiy cho‘qqisi sanaladi. Bu raqs mumtoz musiqa ohanglariga milliy raqs harakatlarini uyg‘unlashtirib, tomoshabinlarga chuqur ta’sir ko‘rsatgan. Mukarramaning ijodi “Bahor valsi” kabi yangi raqslarni ham qamrab olgan – u bastakor M. Mirzayev bilan hamkorlikda yaratgan “Bahor valsi” raqsi keyinchalik “Bahor” ansamblining ramziy asariga aylangan. Umuman, Mukarrama Turg‘unboyeva milliy raqslarga ilmiy yondashuv olib kirib, ularga sahnaviy san’at darajasida ishlov berib, o‘zbek raqsini yangi pog‘onaga ko‘tardi. Qunduz Mirkarimova Mukarrama Turg‘unboyevaning eng iste’dodli shogirdlaridan biri bo‘lib, u ijrochi raqqosa sifatida ham, baletmeyster sifatida ham ulkan shuhrat qozondi. Qunduz opa Moskvadagi